Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 94
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

O'zbekiston SSRning Afg'oniston, Eron va Xitoy davlatlari bilan savdo aloqalari tarixiga oid hujjatlar tahlili.

Ismoiljon Nematov*
✉ ismoilnematov977@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA) fondlarida saqlanayotgan SSSR Tashqi savdo xalq komissarligining O'rta Osiyo bo'limi faoliyatiga oid hujjatlar tahlil qilingan bo'lib, respublikamizning 1917–1941-yillardagi savdo aloqalari tarixi arxiv hujjatlari asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar

Turkiston, Xiva, Yevropa, O'zbekiston Milliy arxivi, Tashqi savdo xalq komissarligi, hisobot, fond, yig'majild, hujjat, bayonnoma, eksport, import, ipak.

DOI: 10.5281/zenodo.21743214

Kirish. O'rta Osiyo mintaqasi qadim davrlardan boshlab savdo yo'llari kesishgan eng muxim hududlardan biri hisoblangan, ushbu hududda 1917-1924 yillarda Xiva xonligi va Buxoro amirligi, keyinchalik Turkiston ASSR, BXSR, XXSR, BSSR va XSSR davlatlari mavjud edi. 1924-yilda O'rta Osiyo hududida Milliy hududiy chegaralanish o'tkazilgach O'zbekiston SSR tashkil etildi va SSSR davlatlarini Afg'oniston, Eron va Xitoy davlatlari bilan savdo-iqtisodiy jihatdan bog'lovchi eng muhim strategik nuqtaga aylandi. Ushbu davrga O'zbekistonning qo'shni davlatlar Afg'oniston, Eron va Xitoy davlatlari bilan olib borgan savdo-iqtisodiy munosabatlari tarixini yorituvchi hujjatlar bugungi kunda O'zMAda saqlanmoqda.

Asosiy qism. Hujjatlarda keltirilishicha, 1921-yil 28-fevralda imzolangan SSSR va Afg'oniston o'rtasida imzolangan shartnoma sovet-afg'on savdo-iqtisodiy munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etgan, shuningdek, Afg'on savdogarlari, ayniqsa mamlakatning shimoliy viloyatlari savdogarlari ham SSSR mamlakatlari bilan savdo aloqalarini mustahkamlash tarafdori bo'lganligi qayd etilgan.

Hisobot hujjatlarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 1922-yil boshlarida Kerkida afg'on savdogarlari bilan ancha faol savdo munosabatlari o'rnatilib, Afg'oniston orqali afg'on va hind mollari ortilgan 100-200 tuyalik karvonlar qatnovi boshlangan. O'zbekiston hududiga import qilingan mahsulotlar asosan ko'k va qora choy, indigo, turli xil bo'yoqlar, ingliz va afg'on chiti, turli xil afg'on ip gazlamalari olib kelingan va qorako'l, ipak, gilamlar va boshqa maxsulotlar eksport qilingan.

Shuningdek, Afg'oniston bilan savdo shartnomasining mavjud emasligi ikki tomonlama tovar ayirboshlashni rivojlantirishga to'sqinlik qilan. Ushbu davrda Afg'oniston bilan savdo aloqalari tasodifiy xarakterga bo'lgan. Quyidagi jadvalda O'zbekiston va Afg'oniston davlatlarining 1919-1923 yillarda savdo aylanmasi keltirilgan[1].

Shuningdek, Afg'onistondan SSSR hududidan quyidagi maxsulotlar olib kirilgan: jun, tulki mo'ynasi, qo'y terisi, echki terisi, qo'zichoq terisi, gilamlar, mayiz, bodom, xurmo, pista, lojuvard, tozalanmagan paxta va boshqalar. Shu bilan birga, Shimoliy Afg'onistonning O'rta Osiyoga eng yaqin bozorlari juda katta tovar zaxiralariga ega bo'lgan. Masalan, Hirot, Andxoy, Meymana, Mozori Sharif bozorlaridan O'rta Osiyoga 200

ming pud paxta, 270 ming pud jun, 20 ming pud teri xom ashyosi, 270 ming pudgacha quruq meva, pista va bodom, 50 ming boshgacha mayda shoxli mol, 8 ming dona merlushka olib kelish va O‘zbekiston hududidan 65 ming pudgacha shakar, 20 ming pud kerosin va benzin, 36 ming pud manufaktura, 3-4 ming pudga gugurt, bo‘yoq, attorlik buyumlari va boshqalar, 5 ming chinni va shisha buyumlar, 6-7 ming dona metall buyumlar bilan eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish mumkin bo’lganligi qayd etilgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 1923-1924-yillarda sovet-afg‘on savdosi hajmi sezilarli darajada oshib, 1.383.000 rublga yetgan (SSSR hududiga eksport - 1.383.000; import - 69.000 rubl). Ammo, savdo aylanmasining bu qiymat miqdori birinchi jahon urushidan oldingi miqdordan ancha kam ekanligi qayd etilgan (1913-yilda umumiy tovar aylanmasi 12.445.127 rublni tashkil etgan)[2]. SSSRning Meymandagi savdo agentining qaydlariga ko‘ra, 1923-yilda Kerki orqali 40 ming pudga yaqin jun, oldingi yillarga nisbatan 1000 pud kam teri olib ketilgan. Afg‘onistonning Kerki, Marv, Termiz va Taxtabozor orqali umumiy eksporti 500 ming oltin rubldan oshmagan[3].

Bayonnoma hujjatlarida keltirilishicha, Afg‘oniston eksport maxsulotlarining eng muhim turlaridan biri bo‘lgan qo‘y terisiga nisbatan 1924-yilda boj miqdori kamaytirilgan. Shu bilan birga, O‘rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi 1924-yil 3-dekabrdagi yig‘ilishida quyidagi tovarlarni litsenziyasiz kiritishga ruxsat berilgan:

1) paxta; 2) paxta, kunjut va zig‘ir urug‘i; 3) quruq mevalar; 4) yong‘oq, bodom va pista; 5) barcha turdagi guruchlar; 6) bug‘doy, arpa va boshqa donli ekinlar; 7) pichan; 8) sariyog‘, pishloq, tuxum, sut, oddiy sabzavotlar, piyoz, sarimsoqpiyoz, har qanday turdagi go‘sht, ov va parranda go‘shti; 9) yelimsimon smolalar; 10) o‘simlik bo‘yoqlari; 11) har xil jun va mo‘yna; 12) mo‘yna (yumshoq terilar); 13) oshlanmagan teri va po‘stlar (shu jumladan qorako‘l); 14) ichaklar; 15) uy hayvonlari va otlar; 16) gilam va paloslar.

Arxiv hujjatlariga ko‘ra, 1930-yilda tayyorlangan, qabul qilingan va chet elga jo‘natilgan afg‘on qorako‘lining umumiy soni 1.740.982 rubllik 129715 dona terini tashkil etgan. Shu jumladan, 1.206.416 rubl 43 tiyinlik 110.369 dona qorako‘l terisi va sanoat-tovar qismida 426.661 rubl 201 tiyinlik 19.346 dona qorako‘l terisi (bunga olib kelingan, ammo hali topshirilmagan 22 mingga yaqin qorako‘l terisi kirmagan)[4]. Qorako‘l to‘lovi bo‘yicha valyuta 73,8 foizni tashkil etgan. Afg‘on savdogarlariga Osiyobank orqali to‘lanishi lozim bo‘lgan 1.206.416 rubl 43 tiyin va savdogarlarga 1.008.249 rubl 03 tiyin to‘langan[5].

Shuningdek, Afg‘oniston savdo aloqari bilan bir qatorda Eron davlati bilan ham savdo aloqalari yo’lga qo’yilgan. Buxoro geografik jihatdan Erondan ko‘ra Afg‘onistonga yaqinroq bo‘lsa-da, Buxoro-Eron savdosining hajmi Buxoro-Afg‘oniston savdosiga nisbatan ancha yuqori ekanligi keltirilgan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 1911–1913-yillarda Afg‘onistonga 100 ming oltin rubillik tovar olib kirilgan bo‘lsa, Eronga 200 ming rubillik tovar olib kirilganligi qayd etilgan.

S. Zashchukning ma’lumotlariga ko‘ra, Turkistonning sharq mamlakatlari bilan savdosida Eronning ulushi 61–63 foizni, Afg‘onistonniki 13–15 foizni, G‘arbiy Xitoyniki esa 24 foizni tashkil etgan.

Arxiv hujjatlarida qayd etilishicha, birinchi jahon urushi yillarida Rossiya va Eronning O‘rta Osiyo orqali savdo aloqalari sezilarli darajada qisqargan. 1915-yilda ayrim turdagi mahsulotlarni (shakar, gugurt, metall, manufaktura, un, idish-tovoq va boshqalar) eksport qilishni butunlay taqiqlangan. 1916–1921-yillarga oid statistik ma’lumotlarga keltirilishicha, bu holat keyingi savdo yillarida tovar aylanmasiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 1926-1927- savdo yilida qo‘shni mamlakatlar bilan savdo bo‘yicha umumiy savdo aylanmasi hajm jihatidan 31 134 000 rublni tashkil etgan bo‘lib, shundan import — 17 901 000 rubl, eksport esa — 13 233 000 rublni tashkil etgan. Biroq, litsenziya tartibining joriy etilishi, netto-balans siyosatining qo‘llanilishi va import hajmining qisqartirilishi natijasida amaldagi holat yanada qulayroq manzarani ko‘rsatdi. Haqiqiy umumiy savdo aylanmasi rejalashtirilganidan 9,7 foizga kam bo‘lgan bo‘lgan, import 26,3 foizga qisqargan, eksport esa 12,1 foizga oshgan.

Hujjatlarda qayd etilishicha, birinchi jahon urushidan oldingi aylanma taxminan 12,6 million so‘mni tashkil etgan, Gazlamalar bo‘yicha 1932-yildagi 1913-yilga nisbatan - 228 vagon ko‘p. Shakar bo‘yicha 1913-yilga nisbatan juda katta o‘sishni ko‘rish mumkin: 1600 tonna, 1932-yilda 6500 tonna. Qorako‘l terisi tayyorlash esa urushdan oldingi tayyorlovga nisbatan 350 000 donagacha kamaygan, umumiy tovar aylanmasi bo‘yicha 1932-yil rejasi 81,9 foizga bajarilgan. Import bu rejani bajarishning 85% ini tashkil etgan[6].

Xitoy bilan 1926-1927- savdo yilidagi umumiy tovar aylanmasi 1925-1926-yilga nisbatan 22,8% ga o‘sgan. Ammo, shuni ta’kidlash joizki, ushbu o‘sish sanoat tovarlarimizni jadal sur’atlarda olib chiqish (eksport qilish) hisobiga yuz berganligi — bunda eksport 194,8% ga oshgan, import esa 36,5% ga kamayganligini ko‘rsatadi. Litsenziyalash tizimining joriy etilishi hamda iste’mol tovarlari guruhi va ayniqsa, mayda shoxli mollar bo‘yicha import cheklovlarining keskin qisqartirilishiga o‘tgan 1926-1927-yilda eksport ulushining 1925-1926-yildagi 25,6% dan 61,5% gacha o‘sgan va mos ravishda importning 74,4% dan 38,5% gacha keskin kamayishiga olib kelganligi qayd etilgan[7].

Hujjatlarda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 1922—1923 yillarda Nijniy Novgorodda yarmarka tashkil etilgan bo‘lib, SSSR hukumati «Rossiya va Eron o‘rtasida iqtisodiy yaqinlashuv » eronlik tadbirkorlarga tovarlarni erkin olib kirish va olib chiqish huquqini bergan. 1922 yilda Boku shahrida katta yarmarka bo‘lib o‘tgan. Eronlik tadbirkorlar unda faol ishtirok etishgan va Sovet davlatlari bilan savdo shartnomalar tuzishgan, bu esa savdo hajmining keskin o‘sishiga olib kelgan.

Bayonnoma hujjatlarida qayd etilishicha, 1923 yilda sovet tashqi savdo tashkilotlari Tehrondagi birinchi umumeron hunarmandchilik va qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasiga qatnashgan. Sovet davlatlari pavilyonida taxminan 20 mingga yaqin sanoat mahsulotlari namoyish etilgan va ushbu yarmarkada 45 mingdan ortiq kishi ishtirok etgan. Shuningdek, SSSRning Erondagi elchisi B.Z. Shumyatskiy 1923 yil 30 noyabrdagi o‘z hisobotida: «Biz Persiya ko‘rgazmasiga ishtirok etyapmiz, chunki Persiyaning iqtisodiy tiklanishi bizga yaqin va aziz» deya qayd etgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 1926-1927 savdo yilida 232 137 dona qorako‘l tayyorlanib, u miqdor jihatidan 54,8% ga, qiymat jihatidan esa 116,7% ga oshib, 3 249 918 rublni tashkil etgan. 137 686 dona (1 537 280 rubl qiymatga ega) qorako‘l eksport qilingan 1925-1926-savdo yili bilan solishtirilganda, miqdor jihatidan 68,1% ga, qiymat jihatidan esa 111,4% ga o‘sish kuzatilgan.

Hisobot hujjatlariga ko‘ra, SSSR va Eron o‘rtasidagi birinchi savdo shartnomasi 1927 yilda imzolangan bo‘lib, Unda eksport-import balansini saqlash asosiy shart sifatida belgilangan. Bu shartnomadan so‘ng savdo aylanmasi qisqa muddat ichida 80% ga o‘sgan. Ammo, 1929—1932 yillardagi iqtisodiy inqiroz paytida Eronning G‘arb mamlakatlari bilan savdosi qisqargan. Eron paxtasi, guruch, jun va boshqa an’anaviy eksport mahsulotlari faqat SSSRda talabga ega edi. Sovet davlatlari ularni 1928 yilgi narxlarda xarid qilgan bo‘lsa, Angliya, Fransiya va AQShda narxlar bir necha barobar tushib ketganligi qayd etilgan.

1931 yilda Eron tashqi savdoda monopoliya joriy qildi va xorijiy raqobatdan himoya qilish uchun importni litsenziyalashni boshladi[8].

Shimoliy Eronga sovet importi hajmining ortishi, asosan, Angliya Hindistonidan Eronga kirib kelayotgan past sifatli tovarlari oqimining kamayishi hisobiga yuz bergan bo’lib, Sovet tovarlari o‘zining yuqori sifati va hamyonbop narxi tufayli eronlik iste’molchilar orasida tobora yuqori talabga ega bo‘lib borgan. Ayrim xomashyo tovarlari (jun) narxi 1926-yilga kelib, 1920-yilga nisbatan 75% gacha ko‘tarilgan. Natijada, Xurosonning SSSR bilan savdo aylanmasi 1925–1926-yillarda qiymat jihatidan qariyb 20 million rublni tashkil etgan, bu ko‘rsatgich birinchi jahon urushidan oldingi darajaga yetganligi qayd etilgan[9].

Ushbu choralar eronlik savdogarlarning sovet yarmarkalaridagi ishtirokini faollashtirishga xizmat qildi. Chunonchi, 1922-1925-yillar davomida Boku yarmarkasiga Eron tovarlarini olib kirish hajmi 12,9 baravarga ortgan.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, 1917–1934-yillarda O‘zbekiston SSRning Afg‘oniston, Eron va Xitoy bilan savdo aloqalari murakkab iqtisodiy va siyosiy sharoitlarida kechgan. Bu aloqalar shunchaki iqtisodiy samara keltirish poydevori bo‘lib qolmay, yangi tashkil topayotgan sovet davlatlarining Janubiy va Sharqiy Osiyoga kirib borishdagi strategik ko‘prik vazifasini o‘tagan. 1924-yilgi milliy-hududiy chegaralanish va tashqi savdo ustidan to‘liq davlat monopoliyasining o‘rnatilishi bilan ushbu an’anaviy va nisbatan erkin savdo aloqalari davri tugab, mutlaq markazlashgan tizimiga bo‘ysundirilgan.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati.

1. Правда Востока, 1925 г., 26 января.

2. Защук С. Внешняя торговля Афганистана // Народнной хозяйство Средней Азии, № 1-2, Ташкент, 1928, С,160.
3. Туркестанская правда, 1924 г., 2 октября
4. O‘zMA, R-8 fond, 14-ro‘yxat, 21-yig‘majild, 2-varaq
5. O‘zMA, R-8 fond, 14-ro‘yxat, 21-yig‘majild, 3- varaq
6. O‘zMA, R-8 fond, 14-ro‘yxat, 101-yig‘majild, 119- varaq
7. O‘zMA, R-8 fond, 1-ro‘yxat, 478-yig‘majild, 17- varaq
8. «Народное хозяйство Средней Азии», 1927, №8
9. Отчет Среднеазиатского Отделения Российско-Восточной торговой палаты за 1925 г. С-17.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Правда Востока, 1925 г., 26 января.

[2] Защук С. Внешняя торговля Афганистана // Народнной хозяйство Средней Азии, № 1-2, Ташкент, 1928, С,160.

[3] Туркестанская правда, 1924 г., 2 октября

[4] O‘zMA, R-8 fond, 14-ro‘yxat, 21-yig‘majild, 2-varaq

[5] O‘zMA, R-8 fond, 14-ro‘yxat, 21-yig‘majild, 3- varaq

[6] O‘zMA, R-8 fond, 14-ro‘yxat, 101-yig‘majild, 119- varaq

[7] O‘zMA, R-8 fond, 1-ro‘yxat, 478-yig‘majild, 17- varaq

[8] «Народное хозяйство Средней Азии», 1927, №8

[9] Отчет Среднеазиатского Отделения Российско-Восточной торговой палаты за 1925 г. С-17.